

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti Tarix va falsafa kafedrası professor-o'qituvchilarining Denov tuman maktablarida 2024-2025 o'quv yilida bitiruvchi maktab o'quvchilarini oliy o'quv yurtlaruga jalb etish va ularga berilgan imtiyoizlarni targ'ib qilish maqsadida o'tkazilgan tadbir

BAYONNOMASI

20.05.2025 y

Denov tumani

Ishtirok etuvchilar:

1. Denov tumani 25-son umumiy o'rta ta'lim direktori – M. Raltorayev
2. DTPI Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti Tarix va falsafa kafedrası professor-o'qituvchilari.
4. 88 -maktab o'qituvchilari va bitiruvchi yoshlari.

Kun tartibi:

"Ilmni qadrlang, ilmga intiling!" shiori ostida tadbir o'tkazish.

DTPI Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti Tarix va falsafa kafedrası professor o'qituvchisi A. Raxcheyev so'zga chiqib, quyidagilarni ta'kidlab o'tdi. Ma'lumki, so'nggi yillarda jamiyatimiz hayotining barcha jabhalarida tub o'zgarishlar bo'lyapti. Shu jumladan ta'lim sifatiga e'tibor umumxalq harakatiga ham aylanib borayotganligi va bu borada yosh avlodga juda kata imkoniyatlar berilayotganligini faxr bilan aytish kerak, bugun yurtimizda yoshlar masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Iqtidorli o'quvchilarimiz bunga javoban xalqaro olimpiadalar, turli tanlovlarda O'zbekistonimiz sharafini munosib himoya qilmoqda. Bilim va iqtidorlarini namoyon etib, ko'ngillarga quvonch ulashmoqda.

Shundan so'ng, DTPI Tarix va falsafa kafedrası o'qituvchisi B. Nazirov so'zga chiqib yakuniga yetayotgan o'quv yili so'ngida yana bir bora O'zbekiston yoshlari kelajagiga barchamiz birdek mas'ulmiz. Kamol topishiga birdek mas'ul ekanmiz, nafaqat maktabda ta'lim olish davrida, balki undan keyingi oliy ta'lim yurtlariga taxsil olishlari vaqtida ham farzandlarimizga katta e'tibor qaratish barchamizning burchimizdir. O'quvchilarga maktabni muvaffaqiyatli tamomlaganligi bilan yana bir karra qutlab, barchaga, kelgusida qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar har jihatdan sodiq, halol, vatanparvar,

fidoyi, mard va jasur bo'lish bilan birga, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, xalq manfaatlarini har narsadan ustun qo'yadigan yosh va istiqbolli xodim bo'lib yetishishiga ishonch bildirildi.

Shundan so'ng, DTPI Tarix va falsafa kafedrası o'qituvchisi A. Jumayev so'zga chiqib so'zi davomida 2024/2025 o'quv yilida maktabni jami 35 nafar bitiruvchi tamomlayotganligini aytib o'tib ular barchasini oliy o'quv yurtlariga o'qib, Vatanimiz ravnaqini yuksaklarga ko'taradigan farzand bo'lishlarini tilab qoldi..

DTPI Tarix va falsafa kafedrası
professor-o'qituvchilari:

B. Nazirov
A. Qarshiyev
A. Jumayev
P. Normamatova

Denov tumani 88 -son umumiy
o'rta ta'lim maktab direktori:



M. To'ltorayev

